

Shadmanova Madina Omnulla qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish orqali aholining bandligini ta'minlashdagi imkoniyatlar, mavjud muammolar va takliflar yoritilgan. Statistik ma'lumotlar asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan ish o'rinlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, xalqaro tajriba asosida rivojlanish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Abstract

This article explores the opportunities, existing challenges, and proposed solutions related to ensuring employment through the financing of small business and entrepreneurship entities. Based on statistical data, the correlation between financial support and job creation is analyzed. Development pathways are discussed in light of international experience.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, moliyalashtirish, bandlik, kreditlar, subsidiya, garov, bank tizimi, davlat kafolati.

Keywords:

small business, entrepreneurship, financing, employment, loans, subsidy, collateral, banking system, government guarantee.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bu — aholining bandligini oshirish va ishsizlikni kamaytirishdan iborat. Ayni paytda bu maqsadlarga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari muhim o'rin tutmoqda. Davlat rahbarining so'nggi qarorlari, prezident farmonlari hamda iqtisodiy islohotlar doirasida kichik biznesni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu o'rinda kichik tadbirkorlikni moliyalashtirish masalasi alohida e'tiborni talab etadi. Kichik biznes subyektlariga qulay moliyaviy sharoitlar yaratilishi — ular tomonidan ish o'rinlari yaratish, aholini daromad bilan ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Ushbu maqolada aynan ushbu jihatlar — kichik biznesni moliyalashtirish orqali bandlikni oshirish masalalari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon banki (2023) xalqaro hisobotda O‘zbekistondagi kichik va o‘rta biznes muhitining umumiy bahosi, moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlari, kreditlash mexanizmlarining samaradorligi va mavjud to‘siqlar tahlil qilingan. Jahon banki O‘zbekistonda kichik tadbirkorlikni moliyalashtirishni yaxshilash uchun davlat tomonidan kafolatlash tizimini kuchaytirishni tavsiya etgan. Hisobotda moliyaviy kirish imkoniyatlari oshgani sari bandlik darajasi oshgani qayd etiladi.

Islomov M. va Toshpulatov A. (2021) kichik biznesni moliyalashtirishdagi muhim muammolar — yuqori foiz stavkalari, garov ta‘minoti bilan bog‘liq cheklovlar, bank xizmatlarining markazlashganligi kabi omillarni ochib beradi. Ularning fikricha, bank tizimi kichik tadbirkorlik subyektlarining imkoniyatlariga moslashmagan. Tadqiqot kichik biznesga xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini soddalashtirish va kafolat fondlarini rivojlantirish zarurligini ta‘kidlaydi.

Ergashev D. (2023) O‘zbekistonda moliyaviy inklyuziya darajasi va kichik tadbirkorlik subyektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ergashev moliyaviy savodxonlikning past darajada ekanligini bandlikni oshirishga salbiy ta‘sir qilayotgan omil sifatida ko‘rsatadi. Muallif kichik biznesni moliyalashtirishda davlat ishtirokini kuchaytirish tarafdori.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola mutaxassislarning kichik biznesni moliyalashtirish va aholi bandligini ta‘minlash yuzasidan olib borilgan izlanishlari va fikr-mulohazalari yoritilgan. Mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, statistik tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar ustuvor mavqega ega bo‘lib mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlashda, aholi bandligini oshirish maqsadida yangi ish o‘rinlarini yaratishda hamda pirovard natijada aholi turmush tarzi va daromadlarini oshirishda ularning roli juda yuqoridir. Kichik biznes iqtisodiyotning tayanchi bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratib, innovatsiyalarni rivojlantirmoqda.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini kreditlash tijorat banklari tomonidan qaytarib berish, to‘lov, ta‘minlanganlik, muddatlilik va ajratilgan mablag‘lardan foydalanishning maqsadli ishlatilishi sharti asosida amalga oshiriladi. Zarar ko‘rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo‘lgan biznes sub‘ektlariga kredit

berilmaydi, bundan tashqari, uzoq muddatli moliyaviy o'pirilish va zararlarni qoplash uchun kredit olib bo'lmaydi.

Kredit olish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyerti qarz oluvchi ozining qarz oluvchi moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini baholash va o'zi uchun quyidagilarni aniq belgilab olishi shart:

- o'z mahsuloti sotish bozorini (talab va taklifni o'rganish);
- loyihani ishlashi uchun kerak bo'ladigan tovar-moddiy boyliklarni, shuningdek, tayyor mahsulotni sotish uchun zarur bo'lgan shartnomalarning mavjudligi;
- kreditlanayotgan tadbirlarni samaradorligi;
- hisob raqamiga pul mablag'lari kelib tushishining davriyligi;
- kredit va uning foizlarini so'ndirish manbalarining;
- kredit uchun to'lanadigan to'lovni hisoblash va uni davriyligi.

Kichik biznesni yuritishga mablag' jalb etishning yana bir yo'nalishi mikrokreditlar hisoblanadi. Mikrokreditlar bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha qulaydir: kredit olish qoidasi bir muncha soddalashtirilgan, garov ta'minotining barcha shakllari hal etilgan, kredit pullarining bir qismi naqd shaklida olinadi, aylanma resurslar xaridi asosan kredit berish masalalari nisbatan oson hal etiladi. O'zbekiston Respublikasining milliy valyutadagi kredit mablag'lari manbai bo'lib, tijorat banklari, shuningdek byudjetdan tashqari fondlar (Mehnat vazirligi qoshidagi bandlik yuzasidan yordam ko'rsatish Fondi hamda deqqon va fermer xo'jaliklari Assotsiyasi qoshidagi dehqon va fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga yordam berish fondi) hisoblanadi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga yordam beradi.

Bugungi kunda respublikamizdagi ustuvor yo'nalishlardan biri - aholi bandligini oshirish, ishchi kuchidan maqsadli foydalanish, foydali mehnatga layoqatli aholining salohiyatini oshirishga qaratilmoqda. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mamlakat aholisining ish bilan bandligi darajasini oshirish va mehnat bozorini tartibga solish sohasidagi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda:

- iqtisodiyotni rivojlantirish negizida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda;
 - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochilib, bu faoliyat qizg'in qo'llab quvvatlanmoqda;
 - aholining mehnat faolligini, oilaviy ijara, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish negizida aholining o'zini-o'zi ish bilan band qilish darajasi oshirilmoqda;
 - aholining ish bilan bandligi va mehnat bozori takomillashtirilmoqda.
- Buning uchun zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarni tugatish yoki ixtisosini o'zgartirish ishlari olib borilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Bizning fikrimizcha, ishchi kuchiga talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga eng avvalo mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko'tarish, solihlarni oqilona belgilash orqali erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes omon qolish va rivojlanish uchun moliyaviy resurslarga muhtoj. Ushbu resurslar turli manbalardan, jumladan, an'anaviy banklar, muqobil kreditorlar, davlat grantlari, farishta investorlari, venchur kapitalistlar va shaxsiy jamg'armalardan kelib chiqishi mumkin. Kichik biznes egalari o'z imkoniyatlarini diqqat bilan ko'rib chiqishlari va o'zlarining noyob biznes modeli va maqsadlariga eng mos keladigan moliya manbasini tanlashlari kerak.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Jahon banki (2023) – “Uzbekistan SME Development Review”
2. Islomov M. va Toshpulatov A. “Tijorat banklari va kichik biznes: muammolar va imkoniyatlar” Iqtisodiyot va Innovatsiyalar jurnali 2021 y.
3. **Ergashev D. (2023)** “Kichik tadbirkorlik va moliyaviy inklyuziya” TDIU ilmiy nashrlari